XALQ DEPUTATLARI ULUG`NOR TUMANI KENGASHINING QARORI
Ulug`nor tumani

2021 - yil 30 - dekabr VI-31-53-1-26-K/21 Ulug‘nor tuman hokimligi

Ulug’nor tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabr kungi “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi O’RQ-742-sonli Qonuni, Byudjet kodeksining 99-moddasi hamda viloyat Moliya bosh boshqarmasining 2021 yil 30 dekabrdagi 01/01-32/140-sonli xatiga asosan, O’zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Ulug’nor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O’zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O’zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to’g’risida”gi 2021 yil 30 dekabr kungi O’RQ-742-sonli Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O’zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabr kungi O’RQ-742-sonli Davlat byudjeti to’g’risidagi Qonuniga (keyingi o’rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, 2022 yilgi Ulug’nor tumani (keyingi o’rinlarda tuman deb ataladi) mahalliy byudjeti daromadlari 26 mlrd 090 mln 230 ming, xarajatlari 95 mlrd 772 mln 226 ming so’m miqdorida prognoz qilinganligi, tuman mahalliy byudjetiga O’zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 69 mlrd 681 mln 996 ming so’m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Qarorga asosan 2022 yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman byudjetiga to’liq o’tkaziladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i;

- er solig’i;

- jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo’yicha deklaratsiyaga asosan to’lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to’lanadigan daromad solig’i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno.

- aylanmadan soliq;

- qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushadigan daromadlar.

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i tuman byudjetiga 25 foiz miqdorida o’tkazilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

b) mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig’i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig’idan tushumlar

2021 yil 1 iyul holatiga ko’ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o’tkazib beriladi.

4. 2022 yil uchun tuman byudjeti daromadlar prognoz ko’rsatkichlari

1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Tuman byudjetidan 2022 yilgi hududiy byudjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin. Bunda, ajratma me’yorlari bo’yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman mahalliy byudjetining taqsimotini o’rnatilgan tartibda tuman g’aznachilik bo’linmasi tomonidan amalga oshirilishi

belgilab qo’yilsin.

Mahalliy hokimliklarni kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o’rinlarini yaratish bo’yicha ma’suliyatini oshirish orqali mahalliy byudjetlar daromadlari bazasini kengaytirish va mustahkamlashga bo’lgan manfaatdorligini kuchaytirish maqsadida aylanmadan soliq va davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar to’liqligicha tuman byudjetiga o’tkazilganligi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i viloyat byudjeti hamda tuman byudjeti o’rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022 yil uchun mahalliy byudjet daromadlar va xarajatlar prognoz ko’rsatkichlari 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. Qarorning 5-ilovasiga muvofiq tuman byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo’l qo’yilmasligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. 2022 yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg’armasi hajmlari

903 mln.513 ming.so’m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy byudjetining 2022 yil uchun zaxira jamg’armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida

1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

10. Tuman hokimligi tuman mahalliy byudjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo’shimcha mablag’larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi”ga yo’naltirsin.

Bunda, tumanxalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman (shahar)lar hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ’ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo’shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro’yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to’g’risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko’ra, keyingi

chorak birinchi oyining

10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

11. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (A.Xamraqulov), tuman hokimligi moliya bo’limi (M.Raxmonov), tuman davlat soliq inspektsiyasi (E.Mo’minov) lar, choraklar yakuni bo’yicha mazkur qarorning 1-ilovasida keltirilgan daromadlarning prognoz ko’rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog’liq bo’lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag’larning tushish ehtimoli bo’lmasa, viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan takliflari bilan birga kiritilgan murojaatiga asosan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yoki xarajatlarni maqbullashtirish takliflarini kiritsinlar.

12. Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag’lar tegishliligi bo’yicha ushbu mahalliy byudjetning ijrosi davomida shakllangan qo’shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo’yilsin.

13. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (A.Xamraqulov), tuman hokimligi moliya bo’limi (M.Raxmonov):

tuman byudjetini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to’lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o’z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida mablag’lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni, kapital qo’yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o’tkazilgan tanlov (tender) savdolari va davlat xaridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtirsin.

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo’yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o’tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo’yicha kamomad va noqonuniy o’zlashtirishga yo’l qo’ygan soha rahbarlarining hisoboti har chorakda eshitib borilsin.

14. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (A.Xamrakulov) tegishli ravishda hududiy byudjet mablag’lari taqsimlovchilarning byudjet mablag’laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo’yicha hisobotlarini tuman Kengashiga berishini ta’minlasin.

15. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (A.Xamrakulov), tuman hokimligi moliya bo’limi (M.Raxmonov), tuman davlat soliq inspektsiyasi (E.Mo’minov) lar byudjet daromadlari va xarajatlarining ko’rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko’rish, byudjet mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazoratni o’rnatishi uchun tuman Kengashiga ma’lumot kiritsinlar.

16. Tuman hokimining birinchi o’rinbosari (A.Xamrakulov), tuman davlat soliq inspektsiyasi (E.Mo’minov)lar Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to’lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

17. “Ulug’nor” ro’znomasi muharririyati (M.Qodirova)ga.Qaror matnini “Ulug’nor” gazetasi sahifasida chop etish vazifasi topshirilsin.

18. Mazkur qaror tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi S.Abdullaxatov hamda Tuman hokimining birinchi o’rinbosari A.Xamrakulov zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Ulug`nor tuman Kengashining XXXI-sessiyasi raisi: **K.G'oziyev**

Халқ депутатлари Улуғнор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-31-53-1-26-K/21-сон қарорига
1-илова

Ulug’nor tumanining mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko’rsatkichlari

ming so`mda

	Daromad turlari	Miqdori
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig’i	
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	4 374 000,0
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	4 037 750,0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	232 000,0
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizelь yoqilg’isi va gaz realizatsiya qilishdagi aktsiz solig’i	
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 978 000,0
5	Yuridik shaxslar yer solig’i	
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i	2 614 000,0
6	Qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	336 000,0
7	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 622 000,0
8	Davlat boji	
9	Jarimalar	
10	Davlat korxonalari sof foydasidan daromadlar	
8	Davlat mulkini ijaraga berishdan tushumlar	71 000,0
9	Yig’imlar	
10	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar	
11	Boshqalar	
JAMI		**16 264 750,0**

	Mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogolь mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig'i tushumlaridan tegishli ravishda o'tkazib beriladigan daromad	**9 825 480,0**
	Aholi soni (ming kishi)	*60,9*
	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	3 718 740,0
	Mobil aloqa xizmati	2 118 661,0
	Tamaki mahsulotlari	3 988 079,0
JAMI DAROMADLAR		**26 090 230,0**
JAMI XARAJATLAR		**95 772 226,0**
TRANSFERTLAR		**69 681 996,0**

Халқ депутатлари Улуғнор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-31-53-1-26-K/21-сон қарорига
2-илова

2022 yil uchun Ulug’nor tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag’larning cheklangan miqdorlari

№	Ko’rsatkichlar nomi	Miqdori
	Xarajatlar - jami	**95 772 226**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo’llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**73 475 934**
	shu jumladan:	
1.1	**Maorif**	**13 257 615**
	- maktabgacha ta’lim	7 340 401
	- umumiy ta’lim	5 917 214
	- kadrlar tayyorlash	0
1.2	**Sog’liqni saqlash jami**	**36 465 334**
	sog’liqni saqlash	36 447 334
	tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	18 000
1.3	**Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari**	**3 230 870**
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 270 184
	- sport	1 960 686
1.4	Fan	0
1.5	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	20 522 115
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**7 636 138**
	shu jumladan:	
2.1	Fermerlar xo’jaliklari buxgalteriya markazlari	514 107
2.2	O’simliklar karantini inspektsiyalari xarajatlari	0
2.3	Obodonlashtirish	4 664 132
2.4	Suv xo’jaligi vazirligi tashkilotlari	1 343 027

2.5	Veterinariya qo’mitasi	650 244
2.6	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	464 628
3.	**Markazlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirishga xarajatlar**	**0**
4.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**6 830 205**
	shu jumladan:	
4.1	Davlat boshqaruv idoralari	6 830 205
5.	**Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarini saqlash**	**2 408 973**
6.	**Zahira jamg’armasi**	**903 513**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi**	**4 517 463**
8.	**Boshqa xarajatlar**	**0**

Халқ депутатлари Улуғнор туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-31-53-1-26-K/21-сон қарорига
3-илова

Ulug’nor tuman Umumdavlat soliqlaridan mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Hudud nomi	Foyda solig’i	Aylanma-dan olinadigansoliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to’g’risidagi deklaratsiyaga asosan to’laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to’laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig’i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stantsiyalari tomonidan to’lanadigan soliq mustasno	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizelь yoqilg’isi va gaz realizatsiya qilishdagi aktsiz solig’i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig’i	Qurilish materiallari bo’yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig’i	Yig’im-lar*	Davlat bojlari*	Jarima-lar*	Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	Davlat mulki bo’yicha ijara to’lovlari
№	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**	**16**	**17**
1	Ulug`nor tumani	0	100	25	100	100	100	100	0	0	100	0	0	0	0	0	100

Davlat bojlari, jarimalar va yig’imlarning ayrim turlari bo’yicha qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda tegishli byudjetlarga ajratma qilinishi mumkin

Халқ депутатлари Улуғнор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-31-53-1-26-K/21-сон қарорига
4-илова

Ulug’or tuman mahalliy byudjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing prognozlari

ming so`mda

№	Hudud nomi	Daromadlar*	Xarajatlar
X	**JAMI**	**26 090 230,0**	**95 772 226,0**
1	Ulug`nor tumani	26 090 230,0	95 772 226,0

Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aktsiz solig’i tushumlaridan ajratiladigan mablag’larni inobatga olgan holda

Халқ депутатлари Улуғнор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-31-53-1-26-K/21-сон қарорига
5-илова

Ulug’nor tuman mahalliy byudjetga 2022 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori

ming so`mda

№	Hudud nomi	Tartibga soluvchi transfert miqdori
X	**JAMI**	**69 681 996,0**
1	Ulug’nor tumani	69 681 996,0

Халқ депутатлари Улуғнор туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-31-53-1-26-K/21-сон қарорига
6-илова

Ulug’nor tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to’g’risida Xalq Deputatlari Ulug’nor tuman Kengashining qaror loyihasi haqidagi Korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha

Ch E K L I S T

Yo‘nalishlar	**Mezonlar (korrupsiyaviy omillar)**	**Javoblar**				**Korrupsiyaviy omil mavjud norma va uning asosi**
Normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	So‘zlarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi	bor	-	Yo`q	+	
	Noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi	bor	-	Yo`q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida ziddiyatlarning mavjudligi	bor	-	Yo`q	+	

Vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Diskretsion vakolatlarning kengligi	bor	-	Yo`q	+	
	Aniq belgilanmagan vakolatlar	bor	-	Yo`q	+	
	Davlat organi tomonidan uning vakolatiga kirmaydigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi	bor	-	Yo`q	+	
	Vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi	bor	-	Yo`q	+	
	Kechiktirib tartibga solish	bor	-	Yo`q	+	
	Manfaatlar to‘qnashuvi	bor	-	Yo`q	+	
	Davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarining mavjudligi	bor	-	Yo`q	+	
	Afzalliklarning asossiz belgilanishi	bor	-	Yo`q	+	
	Normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda qoldirish	bor	-	Yo`q	+	
	Huquq va majburiyatlar o‘rtasidagi nomutanosibliklar	bor	-	Yo`q	+	
Ma’muriy tartib-tamoillar bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Ma’muriy tartib-tamoillarning mavjud emasligi yoki to‘liq emasligi	bor	-	Yo`q	+	
	Belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz belgilanishi	bor	-	Yo`q	+	
	Vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi	bor	-	Yo`q	+	
	To‘lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi	bor	-	Yo`q	+	
	Ortiqcha va asossiz talablarning o‘rnatilganligi	bor	-	Yo`q	+	
	Sanksiyalarning nomutanosibligi	bor	-	Yo`q	+	
	Chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi	bor	-	Yo`q	+	

Nazorat bilan bog‘liq korrupsiyaviy omillar	Shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi	bor	-	Yo`q	+	
	Shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta’minlashdagi bo‘shliqlar	bor	-	Yo`q	+	
	Davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi	bor	-	Yo`q	+	